

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

SPORT FAOLIYATIGA YO'NALTIRISHNING IJTIMOY MUAMMOLARI VA YEECHIMLARI

10.53885/edinres.2022.61.45.136

R.X.Kadirov

BuxDU Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasida dotsenti, p.f.n.

R.R.Latipov

-BuxDU Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi 1 bosqich magistranti.

M.N.Jumaeva

BuxDU Jismoniy madaniyat fakulteti 3 bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada bolalarni sport faoliyatiga jalb etish muammolarini aniqlash va amaliy yEECHIMLARI, ta'lim muassasalarida o'quvchilarni sportga saralash vazifalari va psixologik yondashuvlari o'rganilgan.

Tayanch iboralar: Qobiliyat, sport iqtidori, sport orientatsiyasi, sport faoliyati motivatsiyasi, sport ixtisosligi, sport to'garak.

O'zbekiston Respublikasi xududlarida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish Dasturining asosiy yo'nalishlari qatorida - ta'lim muassasalari o'quvchilari orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish (seleksiya) va ularni maqsadli tayyorlash vazifalari muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Hozirgi davrda sportchi shaxsiga nisbatan e'tibor va talablar majmuida bolalar sportidagi iqtidor va malakalarni saralash nazariyasining yuzaga chiqarishga alohida urg'u berilmoqda. Bolalarni sportga saralash nazariyasining boshlanish davri 60-yillar o'rtalarida xorijiy mamlakatlarda boshlanganligiga qaramasdan bugungi kunda eng dolzarb muammolar qatoridan o'rin olgan [1].

Iqtidorli bolalarni sportga saralash muammolari doimiy izlanishi orqali mukammallashtirish va davomiy tadqiqotlar olib borishni taqazo etadi Sport maktablariga bolalarni saralash, bo'lajak natijalarni prognozlashtirish metodlarining ilmiy asoslanganligi, bolalar sportidan boshlab yuqori natijalar sportiga qadar muhim va ajralmas bosqich sanaladi [2,3].

Bolalarning sportdagi boshlang'ich natijalaridan qoniqish hissi-sport turini to'g'ri tanlanganligi bilan to'g'ri proporsionaldir. Shuning uchun sport turini to'g'ri tanlash qayta - qayta sinash orqali emas, balki o'qituvchi, sport murabbiylari kabi mutaxassislar va keng jamoatchilik tomonidan boshqariladigan jarayondir.

Bolalarni saralash va sport orentatsiya masalarida "sportogramma" orqali amalga oshiriladi (alohida sport turining organizmga ko'rsatadigan talablari, iqtidor va qobiliyat).

Qobiliyat - belgilangan faoliyatga nisbatan shartli ehtiyoj, faoliyat bilan bog'liq vazifalar uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni tez egallash natijasidagi samaradorlikdir.

Sport iqtidori - organizmning anatomo-fizologik xususiyatlari bo'yicha jismoniy harakatni oson bajara olish orqali samaradorlikka erishish yo'lida faoliyatga yo'naltirilgan qobiliyatlar birikmasidir.

Sport arientatsiyasi - insonning ma'lum bir sport turi bilan shug'ullanishiga yo'naltirilgan, uning qiziqishi, bo'lajak sport mashg'ulotlaridan qoniqishini prognozlashtirish kabi tadbirlar tizimidir.

Jismoniy tarbiya va sport ommaviyligini rivojlantirish vazifasi mumkin qadar ko'proq bolalarni ushbu faoliyatga muntazam jalb qilinishi bilan bog'liq. Bir qator mualliflar fikrlariga tayanadigan bo'lsak, bolalar va o'smirlar sport maktablarining boshlang'ich sport tayyorgarligi bosqichi vazifalari qatorida o'quvchilarning sog'ligini mustahkamlash, jismoniy rivojlanish darajasini oshirish, ahloqiy burch va irodaviy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan masalalarning ham belgilanishi muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Aksariyat sport maktablarida, aynan boshlang'ich sport tayyorgarligi guruhlarida 10-20% gacha o'quvchilar qo'nimsizligi aniqlandi. Past samaradorlik sabablari sifatida o'quv-mashg'ulot jarayonining tashkillanishidagi ba'zi yo'l qo'yilgan xatolar va umuman tarbiyaviy, targ'ibot ishlarning sustligi muammo sifatida e'tirof etiladi.

Kuzatishlarimizga ko'ra, ayrim sport faoliyatini to'xtatgan o'quvchilarning aksariyat qismi, o'zining boshlang'ich sport ixtisosligida yuqori natijalarga erishishi mumkinligi e'tirof etildi. Spotdan neratsional ketib qolishlar sababini o'quv-mashg'ulot jarayoni va tarbiyaviy ishlarda qo'llaniladigan vosita va metodlardan qidirish lozim. Bundan tashqari sport maktablaridan erta ketib qolishga sabab murabbiy-o'qituvchilarning pedagogik mahoratidagi nuqsonlar ham ehtimollikdan xoli emas. Sport maktablarning bolang'ich sport tayyorgarligi guruhida ma'lum muddat shug'ullangan va keyinchalik ketib qolgan o'quvchilar orasida (n = 20) o'tkazilgan so'rov natijasiga ko'ra 100% yakdillik bilan

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

shug'ullanish istagi, murabbiy tomonidan e'tibor va guruhda jamoaviy ishlashga bo'lgan ijobiy munosabatlari aniqlanishi bilan bir qatorda asosiy sabab sifatida musobaqalarda qatnashish istagi yo'qligi 25% ni (9-10 yosh) tashkil etdi.

Umumta'lim maktablarning boshlang'ich (1-4 sinf) maktab yoshdagi bolalar o'zlarining xoish-istaklarini imkoniyatlarini ob'ektiv baholashga qodir emasliklari ham aniqlandi, ya'ni ularning asosiy qiziqish sabablari chempion bo'lishlikni (n=78%) tashkil etadi. Bundan tashqari, o'quvchilar sport ta'limining bolang'ich etaplarida jamoaviy ishlar, musobaqa, bahslashuvlarning ayrim elementlari, ya'ni jamoaviy faoliyatni baholashga qaratilganligi ularga ko'proq ma'qul keladi. Aynan 9-10 yoshdagi o'quvchilar bilan ishlashda individuallikka xos ish yuritish ma'lum ma'noda o'zini oqlamaydi, chunki bu yoshda asosiy motiv sifatida o'z tengdoshlari va o'qituvchi bilan birgalikda jamoaviy munosabatlar xususiyati ustunligi jihatidan ajralib turadi.

O'quvchilar tomonidan boshlang'ich sport ixtisosligini tanlash, sport mashg'ulotlarida ko'nikmalarni asta-sekinlikda mustahkamlanishi vazifalari samaradorligini ta'minlashda ota-onalarning munosabatlari ham muhim omil sanaladi. Boshlang'ich sport tayyorgarligi bosqichida salbiy uzilish holatlari kuzatilgan o'quvchilarning ota-onalari, sportning shaxs rivojiga, organizmga va kundalik hayot tarziga ta'siri, ahamiyati to'g'risida tizimli ma'lumotga zga emaslar. Eng noxush vaziyatlardan biri oilaviy kudalik turmush vazifalarning farzandlarimiz istiqbolidan ko'ra ahamiyatliroq deb bilishimiz.

Ta'lim muassasalarda, keng jamoatchilik orasida sport faoliyatiga doir maxsus bilimlarni ommalashtirish, bolalar qiziqishlarini shakllantirishga yo'naltirilgan ishlar asosini targ'ibot tashviqot tadbirlar tashkil topadi. Amaliyotda asosan jismoniy tarbiya darslari jarayonida qisqa nazariy bilimlar berish orqali, sinfdan tashqari ishlashda, musobaqalarda amalga oshiriladi (yakka tartibda maslahat va ko'rsatmalar). Pedagogik kuzatishlar natijasida muhim jarayonning tizimsizligi uzlukcizligi va eng asosiy ilmiy asoslanmagan shakl va metodlar qo'llanilishidagi samarasizlik oqibatida aksariyat boshlang'ich sinf o'quvchilarida sportga bo'lgan qiziqish, intilishlarini tushuntira olmadilar. Ya'ni so'rov natijalarida 77 nafar boshlang'ich sinf o'quvchilaridan faqat 22% sportga bo'lgan munosabatlarni mustaqil izohlab beradilar.

Umumta'lim maktablarining birinchi sinfdan boshlab jismoniy tarbiya dars jarayonida bolalarni sportga saralash yo'llanma berish uchun quyidagi ketma-ketlikda vazifalarni hal etish talab etiladi:

1. Umumta'lim maktab, turar joy, mahallalarda faoliyat ko'rsatayotgan turli sport turlariga xos testlar majmuasida 1-4sinf o'quvchilari qobiliyatlarini individual ravishda aniqlash.

2. Yaqin atrofdagi sport to'garaklari haqida batafsil ma'lumotlarni ota-onalarga yetkazishi.

3. Jismoniy tarbiya ta'lim mazmunida o'quvchilarni olimpiada sport turlari bilan tanishtirish.

4. 6-10 yosh xususiyatlarida jismoniy qobiliyatlarining tabiiy dinamikasida namoyon bo'ladigan senzitiv davrlarga xos jismoniy sifatning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish.

5. Sport turlariga xos harakatlarning texnikaviy elementlarini harakatli o'yinlar vositasida o'zlashtirish.

6. Tabiatdan koordinatsion qobiliyatlar riojlangan iqtidorlarni, jismoniy harakat faolligiga nisbatan individual moyillikni aniqlash.

7. O'quvchilar o'rtasida turli sport musobaqalarini tashkil qilish hamda uning natijalarini maktab miqyosida tahlil qilish.

8. Har bir o'quvchining psixik xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni sport o'yinlariga jalb qilishni yo'lga qo'yish.

Maktab amaliyotida mavjud bo'lgan muammolarni o'rganish jarayonida sotsiologik tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqot maqsadiga asosan yetuk sportchilarning (2014 - 2019 yillar Osiyo o'yinlari, olimpiada, sovrindorlari, unversiada qatnashchilari) sportga kirib kelishi sabablari o'rganildi.

Respondentlar soni $p = 47$ sportchilarning bergan javoblari tahlilida:

- jismoniy tarbiya o'qituvchilari 60%; ota-onalari 18 %; o'rtoqlari 12%

-yaqin kishilari 7%; mustaqil 3% yetuk sportchilarning sport turini tanlashdagi sabab, oqibatlar o'rganiladi.

Umumta'lim maktablarning jismoniy tarbiya o'qituvchilari bu vazifalarni yechishga qodir bo'lgan yetakchi ta'lim sub'ekti sifatida namoyon bo'lyapti. Masalaga o'zgacha yondashadigan bo'lsak o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq jismoniy tarbiya ta'lim tizimi samaradorligi va o'quvchilarning ota-onalari, o'rtoqlari, yaqin kishilari, mustaqil imkoniyatlari orasida ijobiy bog'liqlik (to'g'ri proporsional) mavjudligi sportga saralash faoliyatining teologik jarayoniga metodologik yondashuv masalalari vujudga kelishi kuzatiladi.

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

Pedagogik kuzatishlar davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarining sport bilan shug'ullanishi istiqbollari (motivatsiya) o'rganildi (sportga bo'lgan munosabatlari). Olingan javoblar mohiyatiga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Sport faoliyati motivatsiyasiga bevosita aloqador.
 - chiroyli, estetik harakatlardan qoniqish hissi;
 - o'zgaruvchan vaziyatlarda o'zini boshqara olishi;
 - imkoniyatini ko'rsata olish orqali atrofdagilar e'tiborini qozonish;
 - nomdor sportchilarga taqlid qilish.
2. Sport faoliyati motivatsiyasiga bilvosita aloqador.
 - chiroyli kuchli sog'lom bo'lish;
 - ota-onalar xoxishiga ko'ra.

A.S. Puni ma'lumotlariga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarda motivatsiyaning dinamikligi (o'zgaruvchanligi) xususiyati ustunligi bilan ajralib turadi. Statistik ma'lumotlariga ko'ra o'quvchi o'zining shaxsiy istak va ehtiyojlaridan kelib chiqib sport bilan shug'ullanishga jazm qilsa natijalarning o'sish sur'atida ijobiylik va sababsiz ketib qolishlar nisbatan kam sodir etilishi kuzatilgan [4].

Xulosa shundaki, jismoniy madaniyat ta'lim mazmunida DTS talablari qatorida o'quvchi istaklarini, qiziqishlarini shakllantirish vazifalarini hal qilishda tizimli yondashuv masalasi mohiyatan zaruriy shartdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gapparov Z.G. Sport psixologiyasi T., "Mehrigiyo" M,ChJ, 2011, 33 bet.
2. Выков В.А. Прогнозирование двигательных способностей и основа ранней ориентации в спорте: Учебно-метод.пособие. М. 2007 год, стр.42.
3. Guba В.Р. Основы расподнания раннего спортивного таланта. Учебно-пособие для высше.учеб.заведений физической культуры-М: Terra-sport. 2003 год, 117 стр.
4. Puni A.S. Psixologicheskaya podgotovka k sorevnovaniyam v sporte-M.1969 god, 174 str.
5. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasida-zhismoniy-tarbiya-va-sportni-yanada-24-01-2020>. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.
6. Karomatovich I. A. PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL SUPPORT OF YOUNG TEAM ATHLETES //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 02. – C. 1011-1016.
7. Ibragimov A. K. DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //E-Conference Globe. – 2021. – C. 333-338.
8. Karomatovich I. A. METHODS OF TEACHING CHILDREN FOR MOVEMENT ACTIVITIES IN THE PROCESS OF PHYSICAL EDUCATION //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 242-249.
9. Ibragimov A. K. Catalog of training tasks for training special endurance of young girl handball players. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. Year: 2020, Volume: 10, Issue: 11. P: 486-492. DOI: 10.5958/2249-7137.2020. 01410. X.
10. Narzullayev, Farrux. "Qizlar sporti yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan qizlarning yengil atletika darslarida kuch siaftlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 1.1 (2020).
11. Ashrapovich, N. F. (2021). Determination of physical development of primary school students through national movement games. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.
12. Ashrapovich, N. F. (2022). FORMS OF CONTROL OVER THE PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL ACTIVITY OF THE TRAINER AND ITS PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 372-379.
13. Narzullayev, Farrux Ashrapovich, and Dinara Olimovna Begimkulova. "Sport psixodiagnostikasi fanini o'qitishda ta'lim texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari." *Science and Education* 3.4 (2022): 1724-1730.
14. Nematovich K. S. Abdueva Sitorabonu Savriddin kizi, Fatullayeva Muazzam Azimovna, Kurbanov Shukhrat Kuldoshevich. Using of innovation terms in physical education and sport lessons and their social and educational features //Journal of Critical Reviews. doi. – T. 10. – C. 470-471.

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

15. Abdueva S. S. Q. Determining the speed and strength of 14-15 year old handball players in jumping //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 11. – C. 1212-1220.
16. Abdueva S. S., Khurbonov S., Sabirova N. Evolution of physical performance and techniques of handball girls aged 11-12 //International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET). – 2019.
17. Abdueva S. S. Activities that increase children's interest in the sport of handball //Innovatsionnoerazvitienuki I obrozovaniemejdunarodnayanauchno-prakticheskayakonferensiya. – 2020.
18. Rasulovna S. N. THE PLACE OF PHYSICAL TRAINING AND SPORTS IN THE LIFE OF SCHOOL STUDENTS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – T. 2. – №. 04. – C. 306-312.
19. Rasulovna S. N. TOOLS FOR DEVELOPING SPECIAL PHYSICAL TRAINING AND PHYSICAL QUALITIES IN SPORTS GAMES //E-Conference Globe. – 2021. – C. 299-305.
20. Sabirova Nasiba Rasulovna. Basics and Advantages of Individual Training to Increase Technical and Tactical Training of Basketball Players. AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH. ISSN: 2690-9626 Vol.3, No 1, 2022
21. Akmalovich, D. B., Khalilovich, T. M., Rasulovna, S. N., & Savrievich, F. F. (2020). Psychological impact of football games to the formation of individuality of the student. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 466-469.
22. Сабирова Н. Р. Значение физической культуры в современном обществе //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).
23. Усмонов, Ш. Х., Самадов, С. С., & Фармонов, А. Ч. (2021). Физкультурно-спортивные интересы и мотивационные установки студентов. *Вопросы науки и образования*, (4), 129.
24. Xujamurodovich, U. S. (2022). CORRECTIONS IN JUMPING IN THE DEFENSIVE BLOCK AGAINST AN OPPONENT IN VOLLEYBALL. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 442-450.
25. Azimovna F. M. The quality assessment technology and development techniques in volleyball players //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – T. 2. – №. 04. – C. 242-248.